

# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



## MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANI AMALIY DARSLARIDA ROLLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Nazirova Zamira Gafirovna

prof. t.f.n [TDTrU]

Asadov Hamroz G'aniqul o'g'li  
[TDTrU]

**Annotatsiya:** Rolli o'yinlar olayotgan bilimni mustahkam bo'lishini taminlaydi. Bu usulda dars o'tish jarayonida talabalar turli vazifalar yani rollarni bajarishadi, bu esa o'z navbatida ushbu obraz va jarayon talaba o'rganayotgan bilinga assotsiatsiya hosil qilib talabaning mavzuni tushunishi va bilimning chuqur joylashishiga yordam beradi. Rolli o'yinlarda – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni, Rolli o'yinlar yordamida har xil turdag'i darslarni (masalan, ilovada berilgan elektrotexnika kursi mavzulari bo'yicha) qanday o'tkazishni namoyish etish.

**Kalit so'zlar:** rolli o'yinlar, talim afzalliklari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, motivatsiya qismi, asosiy qism, mavzuni mustahkamlash, yakuniy bosqich.

**Annotation:** Role-playing games enhance the student's interest in the course during the course and ensure that the course process and the knowledge the student receives are solid. In this way, during the course of classes, students perform various tasks, namely roles, which in turn, this image and process helps the student to understand the subject and deep positioning of knowledge by associating with the knowledge that the student is learning. In role-playing games the behaviour of the mental states of a particular person in the fulfillment of his duties and obligations is worked out, the mandatory content of roles, the demonstration of how to conduct classes of various types (for example, on the topics of the electrical engineering course given in the application) using role-playing games.

**Key words:** role-playing games, educational advantages, teaching methods of special subjects, Motivation part, Main part, Topic reinforcement, Final stage.

**Аннотация:** ролевые игры повышают интерес учащихся к уроку в ходе урока и обеспечивают целостность процесса урока и получаемых учеником знаний образ и процесс связаны со знаниями, которые усваивает ученик, что помогает ученику понять предмет и углубить знания. Ролевые игры – отрабатывается поведение психических состояний определенного человека при выполнении обязанностей и ответственности, обязательное содержание ролей, способы проведения различных видов уроков (например, по темам курса электротехники, заданным в приложении) с помощью дисплея ролевых игр.

**Ключевые слова:** ролевые игры, образовательные преимущества, методика преподавания специальных предметов, Мотивационная часть, Основная часть, Закрепление темы, Заключительный этап.

Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadigan metod, Rolli o'yinlar yordamida har xil turdag'i darslarni qanday o'tkazishni namoyish etish mumkin.

Rol o'ynash-bu tajriba o'rganish shakli (Russell & Shepherd, 2010). Talabalar tayinlangan rollarni bajaradilar va ssenariy orqali ushbu rollarni ijro etadilar. Rolli

# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



o'yin birma-bir (individual rolli o'yin) yoki guruhdagi har bir a'zoning rol/xarakterga ega bo'lishi bilan guruhli rolli o'yin sifatida amalga oshirilishi mumkin. Ssenariyda rollar va rol o'ynash qoidalari aniq belgilangan. Rolli o'yinlar talabalar uchun xavfsiz muhitda ma'lum bir rol/xarakterni bajaradigan simulyatsiya qilingan Real vaziyatlarga botirish orqali juda kuchli o'quv tajribalarini taqdim etishi mumkin.

- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

**Ingliz tili darsida adabiy qochqinlar:** Talabalar roman qahramonlari sifatida o'ynaydilar va syujet rivojlanishiga ta'sir qiladigan tanlovlар qilishadi, chunki ularning sarguzashtlari markaziy mavzular va xarakter yoqlarini aks ettiradi.

**Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fani o'quv rejasida maruza va amaliy darslar ko'zda tutilgan.**

Fanning maqsadi: maxsus fanlarni o'qitish metodikasi pedagogik fanlarga taalluqli bo'lib, u pedagogik tadqiqod metodlarini, yani tajribani o'rganish va umumlashtirish, pedagogik eksperiment so'rovnomalar o'tkazish. ma'ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirish, batafsillashtirish va professional faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ular ilmiy fikrlash va nutqni rivojlantiradi, talabalarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Amaliy mashg'ulotlarda masalalarni yechish to'rta usulda bajarilish mumkin: 1) masalani doskadagi o'qituvchi tomonidan echilishi, 2) masalani tinglovchilar va o'qituvchining faol ishtirokida doskada bitta talaba tomonidan echilishi, 3) joylardan o'qituvchining umumiyligi ostida talabalar tomonidan echilishi, 4) o'qituvchi rahbarligida individual topshiriqlar bo'yicha talabalarning mustaqil ishlashi. Ushbu usullarni va MFO'M fanida o'tilayotgan mavzularni mukammal o'rgatish uchun ushbu maqolada rolli o'yinlar orqali tushuntirish usullarini qo'llash ko'rsatilgan. Kelgusida bakalavr talabalariga dars o'tadigan magistr talabalar uchun yuqoridagi usullarni bilish muhimdir. Qolaversa hozirgi kunda yangi innovatsion o'qitish metodlari dolzarb mavzu bo'lib, biz shulardan rolli o'yinlarni ko'rib chiqamiz .

Magistr talabala maxsus fanlarni o'qitish metodlarini o'rganish uchun u o'qituvchi timsoliga kiradi va shu-obrazda har xil turdag'i va shakldagi darslarni olib borish metodikasini ko'rsatadi. quyida magistr talabalar ishtirokida tashkil etiladigan rolli o'yin ssenariysi.

Magistr talabalardan biri o'qituvchi roliga kiradi, guruhning qolgan qismi bakalavr talabalar roliga kirishadi va dars jarayonini olib borish sahnasini yaratadilar.

# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Quyida misol uchun o'qituvchi rolini bajarayotgan magistr talaba va o'quvchilar rolini bajaradigan qolgan magistr talabalarning so'zlari va qilayotgan harakatlariga izohlar bilan bitta amaliy dars o'tkazish ssenariysi keltirilgan.

## SSENARIY

### Darsning motivatsiya bosqichi (????? daqiqa)

**O'qituvchi:** Sinfga hamma kerakli hujjatlarni (fan ishchi dasturi, kalendar rejasи, darsga kerakli materiallarni – o'quv uslubiy majmua, masalalar to'plami, prezentatsiyalar oldindan sinf kompyuteriga yuklangan) olib kirib “Assalomu aleykum talabalar”, – deydi.

**Talabalar:** “Assalom aleykum”, – deb, o'rnidan turadilar.

**O'qituvchi:** “Men Asadov Hamroz Asadovich sizlarga nazariy elektrotexnika (NET) fani amaliyot mashg'ulotlaridan darslarni olib boraman”. Guruh sardori kimligini so'rab, talabalar davomatini tekshirish mobaynida ular bilan tanishadi.

**O'qituvchi:** Joriy darsning mavzusini va rejasini e'lon qiladi. Darsning maqsadi va vazifalarini tushuntiradi. Talabalarda mavzuga qiziqishni uyg'otish uchun blits savollar beradi. va talabalarga fanning zarurligi kelajakda ularga qanchalik kerak bo'lishi haqidagi gaplar bilan adi.talabalarga fan bo'yicha boshlang'ich tushunchalarni beradi,

### Asosiy qism (???? daqiqa)

Talabalar: amaliy mashg'ulot bo'yicha savollar beradilar.

**O'qituvchi:** talabalar savollariga javob beradi. 1-chi amaliy mashg'ulot mavzusini to'liq tushuntirib beradi va talabalardan mavzu orasidan savollar so'raydi.

Talabalar: o'qituvchi tomonidan berilgan amaliy mashg'ulot o'tkazish ketma-ketligi haqidagi savollarga javob berishadi.(bu vaziyatda talabalar hali amaliy mashg'ulotni bajarib ko'rmasdan u haqidagi savollarga javob beradilar. Maqsad ularda avval savol tug'iladi va o'sha savolga javob izlab topish orqali bilim mustahkam o'rnashadi)

Talabalar: to'g'ri javob bergenlar baholanadi, javob bera olmagan savollarini yozib qo'yishadi.

**O'qituvchi:** amaliy mashg'ulot o'tkazish ketma-ketligini talabalar bilan birgalikda bajaradi. Bunda talabalarga topa olmagan savollariga o'qituvchi tomonidan javob beriladi va amaliyot davomida qayta tushuntiriladi.

**O'qituvchi:** har bitta talabaga alohida amaliy mashg'ulot bo'yicha masala beradi.

Talabalar: hamma talabalar bitta talaba misolini doskada birgalikda ishlaydilar o'qituvchi yordamida.

# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Talabalar: barcha talabalar o'zlariga berilgan alohida variantlar bilan masalani ishlaydilar.

Talabalar: masalani ishlash qoidasini tushungandan so'ng, o'zlariga berilgan qiymatlarni qo'yib, o'z variantlarini ishlaydilar.

## **Mavzuni mustahkamlash**

O'qituvchi: mavzuning maqsadi, masalani ishlash qoidalari va amaliy mashg'ulotga aloqador yangi tushunchalar haqida talabalarga eslatadi va qisqacha, o'zaro savol javob o'tkazadi.

O'qituvchi: talabalarni amaliy mashg'ulotdagi talabalarning faolligiga va ishlagan variantlarining to'g'rilingiga qarab ularga a'llo, yaxshi va qoniqarli baholar qo'yiladi.

## **Yakuniy bosqich**

O'qituvchi: talabalar mavzuni yetarlicha tushungandan so'ng, o'qituvchi bu mavzu kelajakda qanday sohalarda kerak bolishi va qayerlarda foydalanish mumkinligini tushuntiradi.

Talabalar: semestr uchun mustaqil ishlar va referatlar ro'yxatini va yangi malumotlarni daftarlariга yozib olishadi.

O'qituvchi: talabalarga referat va mustaqil ish mavzularini topshirib bo'lgach, kelasi dars uchun vazifa berib darsni yakunlaydi.

## **Yuqoridagi ssenariy magistr talabalari uchun**

Bu usulning yani rolli o'yinlar afzalligi shundaki talaba o'zi real hayotda bajarib ko'rishi orqali kelgusida bakalavr talabalarini o'qitish uchun kerakli bilimlarni egallaydi. Rolli o'ynash talabalarni nafaqat bilimini oshiradi shuningdek ularni auditoriyada qanday o'zini tutish kerakligi haqida ham ko'nikma hosil qilib borishga juda katta hissa qo'shamdi. Bu ko'nikmalar bo'lajak o'qituvchilar uchun muhimdir.

## **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://ahaslides.com/uz/blog/role-playing-game/>
2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Z.G.Nazirova, D.Sh.Rustamov, K.K.Juraeva/ Toshkent 2021